

**SARIMSOQ PIYOZ (ALLIUM SATIVUM) O‘SIMLIGINI DALA
MAYDONIDA VA UY SHAROITIDA YETISHTIRISH
TEXNOLOGIYASI**

Sobirova Muqaddas Botirovna

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

“Biotexnologiya” kafedrası, Biologiya fanlari nomzodi (Ph.D.)

Jumayeva Saida Qahramon qizi

O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

“Biotexnologiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sarimsoq piyoz (*Allium sativum*) o‘simligining morfologik tuzilishi hamda uni dala maydonida va uy sharoitida yetishtirish texnologiyalari tahlil qilingan. Sarimsoq piyoz qishga chidamli, ser hosil o‘simlik hisolandi . Tarkibida qand, C vitamini, efir moyi, fitansidlar bor.

Kalit so‘zlar: Sarimsoq piyoz, *allium sativum*, c vitamini, efer moyi, fitansid, tibbiyot, veterinariya.

Kirish. Sarimsoq piyoz –piyozdoshlar oilasiga mansub ikki va ko‘p yillik o‘simlik,sabzovot ekini hisoblandi. Vatani O‘rta Osiyo hisoblanadi.Yovvoyi holda Hindiston, O‘rta dengiz atrofida Qozoqistonda , Sibir, Kavkaz va O‘zbekistonda uchraydi[5]. O‘zbekistonda tarqalgan sarimsoq piyozi ser hosil gulpoya chiqaruvchi, qishga chidamli bo‘ladi. Bargi lentasimon, ildizi patak. Gullari mayda, ikki jinsli qo‘ng‘roqsimon, oq yoki binafsharang[2].Piyozni murakkab,pardasimon umumiy qobiq ichida 7-10 dona mayda piyozchadan iborat bo‘ladi. Tarkibida qand, C vitamini, efir moyi, fitansidlar bor.Tibbiyotda,

veterinariyada, oziq-ovqatda, sabzavotlarni kanservalashda qo'llaniladi[7]. Sarimsoq piyoz boshqa sabzavotlarga nisbatan tez o'sadi. Qish faslida -7-8 C sovuqqa ham bardoshli sanaladi. 10-12 C da yaxshi unib chiqdi. 20-27 C da pishib yetiladi. Sarimsoq piyoz asosan bahor va kuzda ekiladi[8]. 100 m² yerga 10-15 kg sarimsoq piyoz donachalari ekiladi. Piyozchalar oralig'i 4-8 sm qilib, chuqurligi esa 4-6 sm qilib ekiladi[1]. Ekilgandan so'ng somonli go'ng va chirindi tashlanadi. O'sish davrida 5-6 marta sug'oriladi. Iyul boshlarida yetiladi. Hosildorligi 10-15 s/ga teng[3].

Tadqiqot metodlari va usullari.

Tadqiqotlar laboratoriya va dala sharoitlarida o'tkazildi. Dala tajribalari O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filialining tajriba maydonida hamda laboratoriya sharoitida amalga oshirildi.

Yerni tayyorlash Tajriba maydoni dastlab begona o'tlardan (ajriq, g'o'may) tozalandi. Ekishdan oldin yer tayyorlandi. Ekuv dala maydoni 0,5 m² tashkil etdi. Urug'lar 9 mart sanasida ekildi. Dastlabki piyozchalar 7-10 kunda unib chiqdi. Bu tajribada 2 ta qator tanlandi. Qator oralig'i 4-8 sm bo'lib, piyozchalar 5-6 sm chuqurlikda ekildi. Yaganalashda qatordagi o'simliklar orasi 40-45 sm qilib qoldirildi. Tajribalarni rejalashtirish va tahlil qilish P. A. Dospexov metodi bo'yicha olib borildi[4].

Tadqiqot natijalari.

O'simlik o'rta va yengil darajada quritilgan tuproqlarda yaxshi o'sadi. Tuproq organik moddalar bilan ham boyitilgan bo'lishi bilan birga sho'r bo'lmagan tuproqqa ekish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'simlik sho'r bo'lmagan yoki doimiy nam tuproqda yaxshi o'smaydi. Shuning bilan birga ko'proq issiqlik va yorug'likni talab qiladi.

Belgilangan namlik chizig'idan 1-2 sm dan 3-4 sm gacha oraliqda 5 tadan

urug' solindi, bu chiziq ustidan 1-4 sm dan 3-4 sm gacha quruq tuproq bilan yupqa qilib urug'lar usti yopildi. Piyozchalar atrofidagi namlik 3 kun (kech ekish / iliqroq) dan 5 kungacha (erta ekish / sovuqroq) bo'lishi talab etiladi. Piyozchalar soni 0,5-m² joy uchun o'rtacha 20 tani tashkil etdi. Ammo dala tajriba maydoni tuprog'i yetarli talablarga javob bera olmaganligi va quyosh nuri yetarlicha tushmaganligi uchun ekilgan kunjut urug'larining 73% o'sib chiqdi. Nish hosil bo'lishi uchun 10 kun vaqt kerak bo'ldi. Hozirda sarimsoq piyoz kichik nihol hosil qilgan uzunligi 7 sm. Tuproqni yorug' yaxshi tushmaganligi va suv bug'latish jarayoni sekin kechganligi sababli har 5-6 kunda namlab turish amalga oshirilmoqda.

Ma'lum bir miqdorga ega bo'lgan azotli, fosforli, kaliyli o'g'itlar bilan o'g'itlangan dalalarda sarimsoq piyozdan yaxshi hosil olinadi. Sarimsoq piyoz 90-94 kunda o'sib yetiladi. Piyozboshining og'irligi 23-25 gr ni tashkil qiladi.

Xulosa

Sarimsoq piyoz (*Allium sativum*) o'simligi fitansitga o'simlik bo'lib, quyosh nuri yaxshi tushib turadigan, namlik darajasi o'rtacha, tuproq organik moddalar bilan boyitilgan muhitda yaxshi va tez o'sadi[6]. Dastlabki 1 kun tuproq namlik kaliy permanganate eritmasi bilan namlanishi kerak. Piyozchalari sho'r suvga (3 litr suvga 1 osh qoshiq tuz) yoki bo'lmasam mis sulfatning 1%li eritmasiga 12 soat davomida namlansa yaxshi o'sishi ko'zatilgan. Taxminan 0,5m² ko'chat uchun 5-6 litr suv kerak bo'ladi. 7 apreldan 14 aprelgacha bo'lgan davr sarimsoq piyoz ekish uchun ideal vaqt hisoblanar ekan. Tajriba 9 mart kuni boshlanganligi sababli hosil 73% tashkil qildi .



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mo'minov O'ZME birinchi JILD Toshkent 2000 yil
2. DR, J. Riney, G. Smith, and T. Wiemers. 2008. Руководство по выращиванию кунжута. Координаторы Sesaco Sesame, Лаббок, Техас. www.sesaco.net
3. МакСорли, Р. 1999. Пригодность потенциальных покровных культур для галловых нематод. Дж. Нематол. 31 (4С): 619–623
4. Доспехов Б. Методика полевого опыта (с основами статистической обработки результатов исследований). - 5-е изд., доп. и Перераб. - М.: АГРОПромиздат, 1985. - .351 с., ил. (Учебники и учеб. пособия для высш. учеб. заведений).
5. Sobirova M. Determination of stimulant properties of local rhizobacteria-based bioproducts against *Cynara scolymus* L.//The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering//. 2022. – 4 (02), p. 26-30.

6. . Sobirova M., Murodova S. Effects of biopraparites on cynara scolymus L., micro and macroelements, and quantity of flavonoids // In E3S Web of Conferences//. 2021. Vol. 258.

7. Собирова М., Муродова С. Технология получения элиситора, эффективно влияющего на биологические свойства Cynara Scolymus L-M.: Научное обозрение. биологические науки, 2022. №1. с. 68-72

8. Муродова С. С., Хўжаназарова М. Қ., Собирова М.В. PGPR микроорганизмлардан биопрепарат сифатида фойдаланишда иммолизациянинг истиқболли жиҳатлари// “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 yil 30 noyabr 534-543 bet.

9 O.S. Abduraimov, I.E. Mamatkulova, A.V. Mahmudov “Structure of local populations and phytocoenotic confinement of *Elwendia persica* in Turkestan Ridge, Uzbekistan”.BIODIVERSITAS ISSN: 1412-033X.Volume 24, Number 3, March 2023 E-ISSN: 2085-4722.Pages: 1621-1628 DOI:10.13057/biodiv/d240334

10 Mamatkulova I.E."Elwendia Boiss turkumi turlarida efir moyi va antioksidantlik faolligini o‘rganish".Материалы научной конференции проблемы биофизики и биохимии - 2023.119 стр.19 мая 2023 года